xatolarning asosiy manbalari ekanini ko'rsatadilar. Jonung va Larch(2006) ⁴ Yevropa Ittifoqi tajribasini tahlil qilar ekan, mustaqil fiskal prognozlar va fiskal kengashlar mavjudligi siyosiy bir tomonlama optimizmni cheklab, o'rta muddatli barqarorlikni kuchaytirishini asoslab bergan. Jahon bankining o'rta muddatli xarajatlar doirasi (MTEF) va davlat xarajatlarini boshqarish bo'yicha tadqiqotlari esa resurs konvertini ko'p yillik ustuvorliklar bilan bog'lash fiskal intizomni kuchaytirishi va xarajatlar tarkibini strategik maqsadlarga yaqinlashtirishini ko'rsatadi⁵. Ushbu tadqiqot mazkur yondashuvlarni O'zbekiston sharoitida YAIM–soliq daromadlari bog'liqligiga doir ekonometrik modellar bilan integratsiya qilishi bilan ajralib turadi.

O'rta muddatli prognozlash jarayoni modeli fiskal barqarorlik, soliq tushumlari bazasi, iqtisodiy o'sish sur'atlari va inflyasiya kabi ko'p omilli jarayonlarga tayanadi. Internet iqtisodiyotining kengayishi, iqtisodiy faollikning diversifikatsiyasi va soliq ma'murchiligining takomillashuvi budjet daromadlarini rejalashtirishda muhim omillardan biriga aylanmoqda. Shunday ekan, davlat budjeti daromadlarini o'rta muddatli istiqbolda rejalashtirish va prognozashtirish makroiqtisodiy tahlil, soliq siyosati va fiskal institutlarning mustahkamligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Natijada, o'rta muddatli budjet rejalashtirish va prognozashtirish davlat moliyasining barqarorligini ta'minlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ustuvor ijtimoiy maqsadlarga erishishda muhim strategik vosita sifatida xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan tizimli tahlil, kuzatuv, induksiya va deduksiya, abstraksiya, guruhlash usullaridan foydalanilgan. Tahliliy ma'lumotlar xorijiy manbalar asosida boyitilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'rta muddatli rejalashtirish va qisqa muddatli rejalashtirish o'rtasidagi asosiy farqlar vaqt oralig'i, maqsadlar, prognozlash usullari, moslashuvchanlik, risklar va belgisizlik darajalari, foydalaniladigan ma'lumotlar turlari va qabul qilinadigan qarorlar turlarida namoyon bo'ladi. O'rta muddatli rejalashtirish strategik maqsadlarga erishishni ko'zlaydi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan, bu esa keng ko'lamli iqtisodiy modellar va trendlar analizini talab qiladi. Bu rejalashtirish usuli, shuningdek, iqtisodiy o'zgarishlarga moslashish uchun ko'proq vaqt va imkoniyatlarni taqdim etadi va o'rta darajadagi risklar va noaniqliklarni o'z ichiga oladi.

Boshqa tomondan, qisqa muddatli rejalashtirish asosan yillik budjet maqsadlariga va joriy xarajatlarni moliyalashtirishga qaratilgan. Bu usul joriy iqtisodiy sharoit va qisqa muddatli trendlar asosida prognozlashni va taktik qarorlar qabul qilishni o'z ichiga oladi. Qisqa muddatli rejalashtirish past moslashuvchanlikka ega bo'lib, joriy yil uchun rejalar ko'pincha o'zgarmaydi va yaqin kelajakdagi o'zgarishlarni aniq bashorat qilish qiyinligi sababli yuqori risk va belgisizlik darajasiga ega.

1-jadval. Davlat budjeti daromadlarining qisqa va o'rta muddatli rejalashtirish o'zaro farqlari⁶

Mezonlar	O'RTA MUDDATLI REJALASHTIRISH	QISQA MUDDATLI REJALASHTIRISH
Vaqt Oralig'i	3-5 yilgacha	1 yil
Maqsadlar	Uzoq muddatli strategik maqsadlar va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash	Yillik budjet maqsadlari va joriy xarajatlarni moliyalashtirish
Prognozashtirish usullari	Keng ko'lamli iqtisodiy modellar va trendlar analizi	Joriy iqtisodiy sharoit va qisqa muddatli trendlar asosida
Moslashuvchanlik	Yuqori: Iqtisodiy o'zgarishlarga moslashish uchun vaqt va imkoniyat ko'proq	Past: Joriy yil uchun rejalar ko'pincha o'zgarmaydi
Risklarga ta'sirchanligi	O'rta darajada: O'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga moslashuv	Yuqori: Yaqin kelajakdagi o'zgarishlarni aniq bashorat qilish qiyin
Foydalaniladigan ma'lumotlar	Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, uzoq muddatli trendlar, strategik rejalar	Yillik moliyaviy hisobotlar, joriy iqtisodiy ma'lumotlar
Qaror qabul qilish jarayoni	Strategik qarorlar, kelajakka yo'naltirilgan investisiyalar	Taktik qarorlar, joriy xarajatlar va daromadlarni boshqarish

4 Jonung, L., & Larch, M. (2006). Improving fiscal policy in the EU: The case for independent forecasts. *Economic Policy*, 21(47), 491–534.


5 World Bank. (1998). *Public Expenditure Management Handbook*. Washington, DC: World Bank.

6 Muallif ishlanmasi



Har ikki rejalashtirish usuli ham muhim hisoblanadi va davlatlar yoki muassasalar o'zlarining iqtisodiy maqsadlariga erishish uchun ularni muvofiqlashtirib ishlatishlari kerak. O'rta muddatli rejalashtirish uzoq muddatli strategik maqsadlarni belgilab, iqtisodiy barqarorlikni va o'sishni ta'minlashga yordam bersa, qisqa muddatli rejalashtirish joriy operatsion ehtiyojlarni qondirish va favqulodda vaziyatlarga tezkor javob berish imkonini beradi.

Quyidagi 1-rasmda byudjed daromadlarining solikli daromadlarini prognozlashtirish va rejalashtirishni takomillashtirishga harakat qildik.



1-rasm. Soliqlarni prognozlashtirish va rejalashtirish usullari va soliqlarni takomillashtirish tasnifi⁷

Tadqiqotda 2000–2023-yillar davri uchun O'zbekiston Respublikasining YAIMi, uning tarkibiy tarmoqlari kesimidagi qiymati (qishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish, savdo va xizmat ko'rsatish) hamda davlat budjetidagi asosiy soliq turlari bo'yicha (QQS, aksiz solig'i, mulk solig'i, daromad solig'i va b.) tushumlar to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanildi. Ma'lumotlar manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, iqtisodiyot va moliya sohasidagi vazirlik va idoralarning rasmiy nashrlari, shu jumladan, «2024-yil uchun davlat budjeti to'g'risida»gi O'RQ-886-son Qonunga ilova tariqasida keltirilgan prognoz ko'rsatkichlardan foydalanildi. Barcha qiymatlar inflyasiya ta'sirini bartaraf etish maqsadida real narxlarda qayta hisoblab chiqildi.

Regulyarizatsiyalangan regressiya modellarining nazariy asoslari ham tadqiqot metodologiyasini asoslashda muhim o'rin tutadi. Ridge regressiyasi ilk bor Hoerl va Kennard (1970)⁸ tomonidan ko'p qatorlilik sharoitida baholash dispersiyasini kamaytiruvchi L2-jarima berish mexanizmi sifatida taklif etilgan bo'lsa, Tibshirani (1996)⁹ L1-jarima berishga asoslangan LASSO modelini ishlab chiqib, avtomatik o'zgaruvchi tanlash (variable selection) imkonini ko'rsatgan. Keyinchalik Zou va Hastie (2005)¹⁰ tomonidan taklif etilgan Elastic Net esa L1

7 Muallif ishlanmasi

8 Hoerl, A. E., & Kennard, R. W. (1970). Ridge regression: Biased estimation for nonorthogonal problems. *Technometrics*, 12(1), 55–67.

9 Tibshirani, R. (1996). Regression shrinkage and selection via the LASSO. *Journal of the Royal Statistical Society: Series B (Methodological)*, 58(1), 267–288.

10 Zou, H., & Hastie, T. (2005). Regularization and variable selection via the elastic net. *Journal of the Royal Statistical Society: Series B (Statistical Methodology)*, 67(2), 301–320.

va L2 jarima berishni birlashtirgan gibrid tuzilma sifatida, ko'p sonli va yuqori korrelyatsiyalangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan ishlaganda alohida afzallikka ega ekani ta'kidlangan. Fiskal prognozlash bo'yicha Leal va hammualliflar¹¹ hamda Jonung va Larch¹² kabi mualliflarning ishlanmalari model spesifikatsiyasi, ma'lumotlar sifati va institutsional muhit prognoz aniqligiga teskari va bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatgani uchun, ushbu tadqiqotda ridge/lasso/elastic net modellarini tanlash nazariy va amaliy jihatdan to'liq asoslangan hisoblanadi.

Iqtisodiy bog'liqliklarni baholashda avval an'anaviy OLS modeli qo'llanib, so'ngra Ridge va Lasso regressiyalari orqali natijalar taqqoslandi. Ridge modelida L2 regularizatsiya orqali koeffitsiyentlar siqildi, Lasso modelida esa L1 regularizatsiya yesabidan ba'zi koeffitsiyentlar nolga tushirilib, avtomatik o'zgaruvchi tanlash (variable selection) amalga oshirildi. Har bir model uchun giperparametr λ kross-validatsiya usulida, ma'lumotlar bazasini o'quv va test to'plamlariga bo'lish orqali tanlandi. Modellar Stata/R yoki Python muhitlarida amalga oshirilishi nazarda tutildi va baholashda R^2 , RMSE, MAE kabi mezonlar asosida prognostik sifat chuqur tahlil qilindi.

O'rta muddatli prognozlash jarayonida 1-rasmda keltirilgan soliqlarni prognozlashtirish va rejalashtirish usullari tasnifi asosida bir nechta ssenariylar shakllantirildi: bazaviy (status quo), islohotchi (soliq ma'murchiligini yaxshilash va ko'chmas mulk bahosini optimallashtirishni kuchaytirish) va ehtiyotkor (tashqi shoklar va o'sish sur'atlarining sekinlashuvi sharoitida). Har bir ssenariy bo'yicha soliq tushumlari bazasiga ta'sir etuvchi omillar alohida modellashtirildi va Ridge/Lasso natijalari asosida soliq turlari kesimidagi prognoz ko'rsatkichlar shakllantirildi. Shu tarzda MTEF doirasida daromadlar prognozlari bilan fiskal barqarorlik indikatorlari (daromadlar/YAIM, soliq yuki darajasi, budjet taqchilligi ulushi) o'rtasidagi bog'liqlik baholandi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda qisqa muddatli (yillik) budjet sikllari bilan o'rta muddatli prognozlash o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ham alohida o'rganildi. Buning uchun 1-jadvalda keltirilgan mezonlar asosida ikki daraja o'rtasidagi funksiyalar taqsimoti, ma'lumotlar turlari va qaror qabul qilish logikasi taqqoslandi. Umumiy yondashuv shundan iboratki, Ridge/Lasso modellari orqali olingan o'rta muddatli tendensiyalar yillik budjetni shakllantirishda «ramka ko'rsatkichlar» sifatida qabul qilinib, yil davomida yuzaga kelgan shoklar va qisqa muddatli tendensiyalar esa taktik darajada korektirovkalar kiritish orqali hisobga olindi.

Iqtisodiy prognozlash va soliq daromadlarini baholashda Ridge va Lasso kabi regularizatsiyalangan regressiya modellarining ahamiyati katta, chunki ular oddiy OLS yechimlari duch keladigan multikollinearlik, ortiqcha o'zgaruvchilar va modelning barqaror emasligi kabi muammolarni samarali hal qiladi. Ridge regressiyasi (L2 regularizatsiya) koeffitsiyentlarning kvadratini jazo termini sifatida qo'shadi, natijada koeffitsiyentlar «siqiladi», ya'ni ularning qiymatlari kichiklashadi va modelning barqarorligi oshib, multikollinearlik kamayadi (Hill, Griffiths & Lim, 2024)¹³. Ridge modelining minimizatsiya funksiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\hat{\beta}_{ridge} = \arg \min_{\beta} \left[\sum_{i=1}^n (y_i - X_i \beta)^2 + \lambda \sum_{j=1}^p \beta_j^2 \right]$$

Bu yerda λ jazolash parametri bo'lib, uning oshishi koeffitsiyentlarning yanada kichiklashishiga olib keladi. Ridge regressiyasi barcha o'zgaruvchilarni modelda saqlagan holda ularning ta'sirini barqarorlashtiradi va prognozning umumiy dispersiyasini pasaytiradi. Shu sababli Ridge ko'p korrelyatsiyaga ega makroiqtisodiy o'zgaruvchilar bilan ishlayotganda, masalan YAIM tarkibiy qismlari, soliq turlari, eksport-import ko'rsatkichlari va inflyasiya kabi kompleks ma'lumotlarda, juda samarali hisoblanadi (Li & Li, 2021)¹⁴.

Lasso regressiyasi (L1 regularizatsiya) esa koeffitsiyentlarning mutlaq qiymatiga jazo qo'llaydi. Uning minimizatsiya funksiyasi quyidagicha:

$$\hat{\beta}_{lasso} = \arg \min_{\beta} \left[\sum_{i=1}^n (y_i - X_i \beta)^2 + \lambda \sum_{j=1}^p |\beta_j| \right]$$

11 Leal, T., Pérez, J. J., Tujula, M., & Vidal, J. P. (2008). Fiscal forecasting: Lessons from the literature and challenges. *OECD Journal on Budgeting*, 8(1), 1–29.

12 Jonung, L., & Larch, M. (2006). Improving fiscal policy in the EU: The case for independent forecasts. *Economic Policy*, 21(47), 491–534.

13 Hill, R. C., Griffiths, W. E., & Lim, G. C. (2024). *Explaining Ridge Regression and LASSO*. In *Principles of Econometrics* (Chapter 4). University of Arizona.

14 Li, Y., & Li, X. (2021). Lasso and ridge regression methods and their application in GDP forecasting. *Proceedings of SPIE*, 12163, 1216337. <https://doi.org/10.1117/12.2628045>



L1 regularizatsiyaning eng muhim xususiyati shundaki, koeffitsiyentlarning ba'zilar nolga tenglashib ketadi. Bu Lasso modelini avtomatik o'zgaruvchi tanlash vositasiga aylantiradi (Belloni, Chernozhukov & Hansen, 2017)¹⁵. Iqtisodiy modellarda, xususan soliq daromadlari prognozida, o'nlab va yuzlab o'zgaruvchilar bo'lgan sharoitda ortiqcha va kam ta'sirli omillarni modeldan chiqarib tashlash juda muhim. Lasso shu vazifani aniq bajaradi va prognoz modelini minimal va samarali ko'rinishga keltiradi.

Ridge va Lasso modellarining farqini tushuntirish uchun ularning geometrik mohiyatiga ham murojaat qilish mumkin. Ridge jazosi koeffitsiyentlar fazosida "aylana"ga teng cheklov hosil qiladi, shuning uchun koeffitsiyentlar nolga tushmasdan, bir tekis siqiladi. Lasso esa "romb-simon" cheklov hosil qiladi, rombning burchaklari nol nuqtalariga yaqin bo'lgani uchun koeffitsiyentlar nolga tushish ehtimoli yuqori bo'ladi (GeeksforGeeks, 2024)¹⁶. Shuning uchun Ridge barqarorlikni, Lasso esa sparse-model — ya'ni kam o'zgaruvchili modelni ta'minlaydi.

Ushbu modellar iqtisodiyotda, ayniqsa YAIM o'sishini prognozlashda, OLS modellaridagi katta xatolik, noto'g'ri interpretatsiya va overfitting muammolarini bartaraf qiladi. Li va Li (2021)¹⁷ GDP prognozlash bo'yicha o'z tadqiqotlarida Ridge va Lasso modellari OLSdan sezilarli darajada aniq natija berganini empirik ravishda isbotlagan. Bundan tashqari, soliq daromadlarini prognozlashda Lasso ortiqcha soliq turlarini yoki ta'siri past bo'lgan omillarni avtomatik ravishda chiqarib tashlaydi va modelning real iqtisodiy drayverlarini aniqlaydi, Ridge esa ma'lumotlardagi baland korrelyatsiya va dispersiyani barqarorlashtirib, prognoz natijalarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi (Department of Treasury and Finance Victoria)¹⁸.

Ridge va Lasso modellarining har ikkida ham λ giperparametri hal qiluvchi ahamiyatga ega. $\lambda = 0$ bo'lsa, model oddiy OLSga aylanadi; λ kattalashgan sari Ridge koeffitsiyentlarni juda kichik qiymatlarga tushiradi, Lasso esa omillarni nolgacha qisqartiradi. Shuning uchun λ ni to'g'ri tanlash — kross-validatsiya yoki AIC/BIC kabi kriteriyalar asosida optimallashtirish — prognoz sifatini keskin yaxshilaydi (Mondal, 2024)¹⁹.

Iqtisodiy prognozlashning zamonaviy amaliyotida ushbu ikki modelning afzalliklari birlashtirilgan gibrid model — Elastic Net keng qo'llanadi. Elastic Net L1 va L2 jazolarni birlashtirgani uchun ham o'zgaruvchi tanlash, ham koeffitsiyentlarni barqaror siqish vazifasini bir vaqtning o'zida amalga oshiradi (Scitepress, 2025)²⁰. Uning minimizatsiya funksiyasi quyidagicha:

$$\hat{\beta}_{EN} = \arg \min_{\beta} \left[\sum_{i=1}^n (y_i - X_i \beta)^2 + \lambda_1 \sum_{j=1}^p |\beta_j| + \lambda_2 \sum_{j=1}^p \beta_j^2 \right]$$

Soliq daromadlari va YAIM prognozlarida Elastic Netning afzalligi shundaki, u Ridgening barqarorligini ham, Lassoning sparse-model xususiyatini ham bir vaqtda ta'minlaydi.

Shu tariqa, Ridge, Lasso va Elastic Net modellari iqtisodiy prognozlashning eng muhim instrumentlaridan biri bo'lib, ular soliq siyosati, makroiqtisodiy barqarorlik va budjet prognozlarini aniqlashda uzluksiz qo'llanadi. Ular iqtisodiy modellashdagi asosiy muammolarni — multikollinearlik, ortiqcha omillar, yechimlarning noaniqligi —ni samarali bartaraf etishi, ularning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

2000-2023-yillardagi Yalpi ichki mahsulot va uning tarkibi hamda davlat budjeti daromadlari o'rtasidagi real narxlar asosida tahlil natijalarga ko'ra, daromad solig'i va mulk soliqlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida rivojlanishning strategik turtki berishi aniqlangan.

Ushbu rasmga ko'ra, mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlarida o'sish kuzatilmoqda. 2024-yil uchun Yalpi ichki mahsulot (YAIM) prognozi 1 301 759 milliard so'mni tashkil etadi va bu ko'rsatkich 2026-yilga kelib 1 725 969 milliard so'mgacha ortishi kutilmoqda. YAIMning o'sish sur'atlari 2024 yilda 5,6% dan boshlanib, keyingi yillarda oshgan holda, 2026-yilda 6,4% ga yetishi prognoz qilinmoqda. Ko'rsatkichlarning bunday o'sishi iqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilgan siyosatlarining samaradorligini ko'rsatadi.

15 Belloni, A., Chernozhukov, V., & Hansen, C. (2017). *Lasso regressions and forecasting models in applied stress testing*. IMF Working Paper WP/17/108.


16 GeeksforGeeks. (2024). *Ridge regression vs. Lasso regression*. <https://www.geeksforgeeks.org/machine-learning/ridge-regression-vs-lasso-regression/>

17 Li, Y., & Li, X. (2021). Lasso and ridge regression methods and their application in GDP forecasting. *Proceedings of SPIE*, 12163, 1216337. <https://doi.org/10.1117/12.2628045>

18 Department of Treasury and Finance Victoria. (n.d.). *An overview of forecasting algorithms*. <https://www.dtf.vic.gov.au/victorias-economic-bulletin-applying-machine-learning-tax-revenue-forecasting/3-overview-forecasting-algorithms>

19 Mondal, S. (2024). *A tutorial on Ridge and Lasso regression*. LinkedIn. <https://www.linkedin.com/pulse/tutorial-ridge-lasso-regression-subhajit-mondal>

20 Scitepress. (2025). *Using Linear Regression, Ridge Regression, Lasso Regression and Elastic Net in Predicting Economic Indicators*. Proceedings of the 13th International Conference on Data Science, Technology and Applications.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va konsolidatsiyalashgan budjet daromadlarining 2024-yil uchun prognoz hamda 2025-2026-yillarga maqsadli mo'ljallari²¹

Iste'mol narxlar indeksi, ya'ni inflyasiya darajasi, biroz pasayish tendensiyasini ko'rsatmoqda. 2024-yilda 8% dan boshlab, 2025-yilda 7.5% ga va 2026-yilda 6% ga tushishi kutilmoqda. Bu holat narx barqarorligiga va pul-kredit siyosatining to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga ishora qiladi. Past inflyasiya, aholining sotib olish qobiliyatini saqlash va iqtisodiyotning umumiy salomatligini yaxshilash uchun muhimdir.

Jadvalda ko'rsatilgan konsolidatsiyalashgan budjet daromadlarining o'sishi ham iqtisodiyotning kengayib borayotganini ko'rsatadi. 2024-yil uchun budjet daromadlari 375 030 milliard so'mdan boshlab, 2026-yilga kelib 515 980 milliard so'mgacha ortishi kutilmoqda.

Umumiy holda, jadval ma'lumotlari mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi va moliyaviy sog'lomlashuvini ko'rsatadi. Bu esa, mamlakat iqtisodiy siyosatining to'g'ri yo'nalishda ekanligini va kelajakda ham iqtisodiy, ham moliyaviy jihatdan ijobiy o'zgarishlarga olib kelishini prognoz qilish mumkin.

2-jadvalda keltirilgan Ridge modeli natijalari YAIM va uning tarkibiy tarmoqlari uchun mulk solig'i koeffitsiyentining solishtirma tarzda eng katta qiymatlarga ega ekanini ko'rsatadi. Masalan, YAIM bo'yicha mulk solig'idan tushumlarning 1 foizga oshishi 58,4 mlrd so'm yoki 0,059 foizlik o'sishni ta'minlashi aniqlangan. Qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida ham multiplikativ ta'sir yuqori ekani, tegishli 10,0 mlrd so'm va 16,4 mlrd so'm atrofidagi qo'shimcha qiymat bilan namoyon bo'ladi. Bu natijalar mulk solig'i institutsional takomillashuvi orqali yalpi iqtisodiy faollikka kuchli stimulas sifatida ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Lasso modeli natijalari esa ayrim soliq turlarining modeldan chiqib ketganini (koeffitsiyentlar nolga tenglashganini) ko'rsatadi, bu esa ularning YAIM va alohida tarmoqlar dinamikasiga ta'siri nisbatan past ekanidan dalolat beradi. Shu bilan birga, daromad solig'idan tushumlarning 1 foizga oshishi YAIMni 89,1 mlrd so'mga, mulk solig'idan tushumlarning 1 foizga oshishi esa 78,4 mlrd so'mga oshirayotgani qayd etilgan. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida daromad solig'ining ta'siri ayniqsa kuchli bo'lib, 64,9 mlrd so'mlik qo'shimcha qiymat bilan ifodalanadi. Bu, bir tomondan, mulk solig'i ko'chmas mulk bozori faolligini oshirishi, ikkinchi tomondan, daromad solig'i mehnat bozori va ish haqi fondi orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkinligini ko'rsatadi.

2-rasmda taqdim etilgan 2024–2026-yillar uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari prognozlari yuqoridagi ekonometrik natijalar bilan uyg'unlikda ekani kuzatiladi. YAIMning 5,6–6,4 foiz atrofidagi barqaror o'sish sur'atlari va inflyasiya darajasining bosqichma-bosqich pasayishi (8 foizdan 6 foizgacha) soliq bazasining kengayishi va real daromadlar o'sishi uchun qulay makro muhit yaratadi. Konsolidatsiyalashgan budjet daromadlarining 2024–2026-yillarda 375 030 mlrd so'mdan 515 980 mlrd so'mgacha o'sishi prognoz qilingani Ridge va Lasso modellarida aniqlangan soliq drayverlari bilan mos keladi va o'rta muddatli fiskal barqarorlikni ta'minlash imkonini oshiradi.

21 Ўзбекистон Республикасининг 2023 йил 25 декабрдаги "2024 йил учун Ўзбекистон Республикасининг давлат бюджети тўғрисида" ЎРҚ-886-сонли Қонуни



Natijalar shuningdek, tarmoqlar kesimida soliqlar ta'siri turlicha namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Masalan, sanoatda QQS va mulk solig'i koeffitsiyentlari yuqoriroq bo'lib, bu tarmoqdagi investisiya va asosiy kapital qiymatining yuqoriligi bilan izohlanadi. Qishloq xo'jaligida esa daromad solig'i ta'siri ustuvor bo'lib, mehnat talabgirliigi yuqori bo'lgan agrar tarmoqlarda faoliyat yurituvchi soliq to'lovchilar sonining ko'pligi va ish haqi fondi kengligi bilan bog'liq. Qurilish va savdo/xizmat ko'rsatish sektorlarida ham mulk solig'ining sezilarli roli 2-jadvaldagi koeffitsiyentlar orqali tasdiqlanadi, bu esa ko'chmas mulkka bog'liq faoliyat turlarining iqtisodiy o'sishdagi o'rni kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

2000-2023-yillardagi Yalpi ichki mahsulot va uning tarkibi hamda davlat budjeti daromadlari o'rtasidagi real narxlar asosida tahlil asosida soliq turlarining YAIM yoki muayyan iqtisodiy sohalarga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlash maqsadida Lasso va multikollinearlik (o'zaro aloqadagi mustaqil o'zgaruvchilar) muammosini hal qilish orqali bir vaqtning o'zida bir nechta mustaqil o'zgaruvchilari Ridge modeli asosida tahlil qilindi va buni 2-jadvalda ko'rish mumkin.

2-jadval. Yalpi ichki mahsulot va uning tarkibiy sohalariga va soliq turlarining ta'siri Ridge va Lasso regressiya natijalari, mlrd.so'mda²²

Regressiya modeli	Sohalar	QQS	Aksiz solig'i	Mulk solig'i	Daromad solig'i	_cons	R ²
Ridge modeli	YAIM	46 500,6 (0,02)	31 088,3 (0,03)	58 378,1 (0,01)	-	.	0,997
	Qishloq xo'jaligi	10 270,5 (0,04)	7 327,2 (0,05)	10 043,5 (0,04)	-	.	0,993
	Sanoat	14 845,3 (0,03)	7 650,5 (0,06)	16 456,8 (0,02)	-	.	0,991
	Qurilish	3 482,2 (0,08)	1 253,9 (0,10)	4 955,2 (0,05)	-	.	0,993
	Savdo va xizmat ko'rsatish	2 437,7 (0,09)	1 538,7 (0,08)	4 517,9 (0,06)	-	.	0,992
Lasso modeli	YAIM	18 600,1 (0,05)	-	78 399,4 (0,02)	89 148,3 (0,01)	.	0,999
	Qishloq xo'jaligi	-	-	11 899,4 (0,02)	64 874,6 (0,01)	.	0,999
	Sanoat	58 942,4 (0,01)	-	12 348,9 (0,03)	-	.	0,995
	Qurilish	9 511,6 (0,04)	-	6 162,6 (0,05)	-	.	0,999
	Savdo va xizmat ko'rsatish	-	-	9,259 (0,04)	13,888 (0,03)	.	0,999

Tahlillarga ko'ra, o'rta muddatli istiqbolda davlat budjeti daromadlarini barqarorlashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun harakatlantiruvchi kuch sifatida yuridik shaxslarning ko'chmas mulk ob'yektlari qiymatiga eng kam me'yorlarni joriy etish orqali kadastr qiymati va bozor narxi o'rtasidagi tafovutlarni maqbullashtirish kerak.

Soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq to'lovchi ko'chmas mulk ob'yektlari qiymatini mustaqil baholashni amalga oshirishga huquqi berilgan holda, ko'chmas mulk ob'yektlariga nisbatan soliq bazasi 1 kv. metr uchun mutlaq miqdordan past bo'lishi mumkin emasligi belgilangan. Muallif fikricha, 1 kv. metr uchun mutlaq miqdor Toshkent shahrida – 3 mln so'm, Nukus shahri va viloyat markazlarida – 2 mln so'm, boshqa hududlarda – 1,2 mln so'mdan past bo'lmasligi maqsadga muvofiq.

Olingan natijalar Auerbach (1994) tomonidan ta'kidlangan fiskal barqarorlik va prognoz aniqligi o'rtasidagi bog'liqlikni amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Ridge va Lasso kabi zamonaviy modellardan foydalanish budget prognozlarini yanada barqaror va ishonchli qilayotgani Li & Li (2021), Hill va hammualliflar (2024) hamda Belloni va boshqalar (2017) tadqiqotlari bilan uyg'unlikda. Shuningdek, budget ochiqqligi va hisobdorligi darajasini oshirish zarurligi De Renzio (2009) va moliya organlarining prognoz algoritmlari bo'yicha amaliy tajribasini aks ettiruvchi Department of Treasury and Finance (Victoria) hujjatlari bilan ham mos keladi.

Mulk va daromad soliqlarining YAIM va tarmoqlar kesimidagi kuchli ijobiy ta'siri ularni o'rta muddatli soliq siyosatining «yadero»si sifatida ko'rishni taqozo etadi. Tadqiqotda taklif etilganidek, yuridik shaxslar ko'chmas mulki qiymati bo'yicha eng kam me'yorlarni joriy etish, kadastr va bozor qiymati o'rtasidagi tafovutni qisqartirish va 1 kv. metr uchun mutlaq minimal bahoni hududlar kesimida differensiatsiya qilish soliq bazasini kengaytirish bilan birga, ko'chmas mulk bozorida samarali resurs taqsimotini ta'minlaydi. Bu o'z navbatida, o'rta muddatli istiqbolda ham budjet daromadlarini barqaror manbalar hisobiga oshirishga xizmat qiladi.

O'rta muddatli daromadlar prognozini ishlab chiqish iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyasiya, valyuta kurslari va tashqi savdo balansining aniq prognozlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Ayniqsa, iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi qonunchilik tashabbuslariga e'tibor qaratish zarur.

Natijalar hududiy va tarmoq rivojlanishini hisobga olgan holda budjet daromadlarini rejalashtirish zarurligini yana bir bor ko'rsatadi. Mulk solig'i ta'siri yuqori bo'lgan hududlar (masalan, shahar markazlari va sanoat zonalarida) kadastr baholash tizimini isloh qilish, past soliq salohiyatiga ega qishloq hududlarida esa qishloq xo'jaligi qiymat zanjiriga investisiyalarni rag'batlantirish, qo'shimcha qiymat yaratishni amaliy qo'llab-quvvatlash zarur. Shunday yondashuv hududlar o'rtasidagi iqtisodiy farqlarni kamaytirish, mahalliy budjetlar barqarorligini mustahkamlash va fiskal tenglashtirish siyosatini samarali amalga oshirishga imkon beradi.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Birinchidan, rasmiy statistikada «ko'rinmas iqtisodiyot» va soliq qochish masshtablarini to'liq aks ettirmaslik ehtimoli model natijalarini ma'lum darajada past baholashga yoki yuqori baholashga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, 2008-yil global inqirozi, 2020-yil pandemiyasi kabi katta shoklar strukturaviy uzilish (structural break) sifatida qaralishi va alohida modellashirilishi maqsadga muvofiq. Kelgusi tadqiqotlarda panel ma'lumotlar, tarmoq-hudud kesimidagi mikrodarajadagi soliq to'lovchi ma'lumotlaridan foydalanish, shuningdek, dinamik modellar va ssenariyli stress-testlash (stress testing) instrumentlarini qo'llash rejalashtirish mumkin. Bu esa o'rta muddatli fiskal prognozlarni yanada aniqlashtirish va soliq siyosatining makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini chuqurroq baholashga imkon beradi.

Soliq solish tizimini takomillashtirish va iqtisodiyotning barcha sektorlarini qamrab oluvchi soliq bazasini kengaytirish orqali budjet daromadlarini diversifikatsiya qilish zarur. Tabiiy resurslarga asoslangan daromadlarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash uchun ularning joyini texnologik rivojlanish va innovatsiyaga yo'naltirilgan sektorlarning o'rnini bilan almashtirish muhim.

Budjet daromadlarini prognozlashtirishda soliqlarni yig'ish samaradorligini oshirish va soliq qochish holatlarini kamaytirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishga e'tibor berish lozim. Bunda soliq qonunchiligi soddalashtirilgan holda tasdiqlanishi va kichik biznes sub'yektlari uchun qulay sharoit yaratilishi muhimdir.

Tahlillarga ko'ra, o'rta muddatli istiqbolda davlat budjeti daromadlarini barqarorlashtirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari uchun harakatlantiruvchi kuch sifatida yuridik shaxslarning ko'chmas mulk ob'yektlari qiymatiga eng kam me'yorlarni joriy etish orqali kadastr qiymati va bozor narxi o'rtasidagi tafovutlarni maqbullashtirish kerak.

O'zbekiston Respublikasida davlat budjeti daromadlarini o'rta muddatli istiqbolda rejalashtirishda iqtisodiy barqarorlik, soliq tizimining diversifikatsiyasi, texnologiyalardan foydalanish va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy farqlarni kamaytirishga qaratilgan choralar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu choralar davlat moliyasining barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun zamin yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qilgan tahlillar, tekshirilgan gipotezalar va qo'yilgan tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, quyidagi umumlashtirilgan xulosa va takliflar beriladi:

birinchidan, Ridge va Lasso modellari qo'llanilgan o'rta muddatli daromadlar prognozlari an'anaviy OLS usuliga nisbatan barqaror va aniqroq natija bergani, davlat budjeti daromadlarini o'rta muddatli istiqbolda rejalashtirish va prognozlashtirishning zamonaviy ekonometrik asoslarini ishlab chiqish maqsadiga erishilganini tasdiqlaydi;

ikkinchidan, mulk va daromad soliqlari YAIM va uning tarkibiy tarmoqlari uchun eng yuqori marjinal ta'sir ko'rsatuvchi soliq turlari sifatida aniqlandi, shu sababli o'rta muddatli soliq siyosatini shakllantirishda ushbu soliqlarning stavkalari, bazasi va imtiyozlar arxitekturasini qayta ko'rib chiqish ustuvor yo'nalish sifatida belgilanishi lozim;

uchinchidan, yuridik shaxslar ko'chmas mulki uchun eng kam kadastr me'yorlarini hududlar kesimida differensial joriy etish, kadastr va bozor qiymati o'rtasidagi tafovutni qisqartirish, shuningdek, raqamli soliq ma'murchiligi va soddalashtirilgan soliq qonunchiligi orqali soliq bazasini kengaytirish budjet daromadlarini diversifikatsiya qilish va yig'im samaradorligini oshirishga xizmat qiladi;

to'rtinchidan, olingan model natijalari va o'rta muddatli makroiqtisodiy prognozlar MTEF doirasida resurslar limitini (resource envelope) aniq belgilash, hududlar kesimida fiskal tenglashtirish mexanizmlarini



takomillashtirish va budjet rejalashtirishni o'rta muddatli strategiya va tarmoq/hududiy rivojlanish dasturlari bilan uzviy bog'lash bo'yicha davlat moliyasini boshqarish organlari uchun amaliy metodik asos sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida" O'RQ-886-sonli Qonuni
2. Auerbach, A. J. (1994). The U.S. fiscal problem: Where we are, how we got here, and where we're going. NBER Working Paper No. 4709. <https://www.nber.org/papers/w4709>
3. De Renzio, P. (2009). Taking stock: What do PEFA assessments tell us about PFM systems across countries? ODI Working Paper. <https://odi.org/en/publications/taking-stock-what-do-pefa-assessments-tell-us-about-pfm-systems-across-countries/>
4. Leal, T., Pérez, J. J., Tujula, M., & Vidal, J. P. (2008). Fiscal forecasting: Lessons from the literature and challenges. OECD Journal on Budgeting, 8(1), 1–29.
5. Jonung, L., & Larch, M. (2006). Improving fiscal policy in the EU: The case for independent forecasts. Economic Policy, 21(47), 491–534.
6. World Bank. (1998). Public Expenditure Management Handbook. Washington, DC: World Bank.
7. Hoerl, A. E., & Kennard, R. W. (1970). Ridge regression: Biased estimation for nonorthogonal problems. Technometrics, 12(1), 55–67.
8. Tibshirani, R. (1996). Regression shrinkage and selection via the LASSO. Journal of the Royal Statistical Society: Series B (Methodological), 58(1), 267–288.
9. Zou, H., & Hastie, T. (2005). Regularization and variable selection via the elastic net. Journal of the Royal Statistical Society: Series B (Statistical Methodology), 67(2), 301–320.
10. Hill, R. C., Griffiths, W. E., & Lim, G. C. (2024). Explaining Ridge Regression and LASSO. In Principles of Econometrics (Chapter 4). University of Arizona.
11. Li, Y., & Li, X. (2021). Lasso and ridge regression methods and their application in GDP forecasting. Proceedings of SPIE, 12163, 1216337. <https://doi.org/10.1117/12.2628045>
12. Belloni, A., Chernozhukov, V., & Hansen, C. (2017). Lasso regressions and forecasting models in applied stress testing. IMF Working Paper WP/17/108.
13. GeeksforGeeks. (2024). Ridge regression vs. Lasso regression. <https://www.geeksforgeeks.org/machine-learning/ridge-regression-vs-lasso-regression/>
14. Department of Treasury and Finance Victoria. (n.d.). An overview of forecasting algorithms (including Lasso and Ridge in tax revenue forecasting). <https://www.dtf.vic.gov.au/victorias-economic-bulletin-applying-machine-learning-tax-revenue-forecasting/3-overview-forecasting-algorithms>
15. Mondal, S. (2024). A tutorial on Ridge and Lasso regression. LinkedIn. <https://www.linkedin.com/pulse/tutorial-ridge-lasso-regression-subhajit-mondal>
16. Scitepress. (2025). Using Linear Regression, Ridge Regression, Lasso Regression and Elastic Net in Predicting Economic Indicators. In Proceedings of the 13th International Conference on Data Science, Technology and Applications.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100